



AHLI SUNNA VAL JAMOA ULAMOLARINING MUTASHOBIH LAFZLAR BORASIDAGI METODOLOGIYASI

Muhammadmuso Nabijonov

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik
akademiyasi maqsadli tayanch doktoranti
nabijonovmuhammadmuso0@gmail.com

Tel: +998 90 216 14 96

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17862346>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-dekabr 2025 yil
Ma'qullandi: 05-dekabr 2025 yil
Nashr qilindi: 09-dekabr 2025 yil

KEYWORDS

*Allohning sifatleri, mutashobih
oyatlar, tanzih, ta'vil, tafviz,
tashbeh, tajsim, salafiylik,
kayfiyat, ahli sunna val jamoa.*

ABSTRACT

Ushbu maqola Ahli sunna val-jamoa ulamolarining Qur'oni karim va Hadisi sharifdagi mutashobih (ma'nosi murakkab yoki o'xshash) lafzlar borasidagi asosiy metodologiyasini atroflicha yoritishga bag'ishlangan. Islomning dastlabki asrlarida, ayniqsa, mujassima va mushabbiha firqalarining bu lafzlarning zohiriy ma'nolariga yopishib olib, tashbih (Allohni maxluqotga o'xshatish) va tajsim (Allohga jism nisbati berish) kabi buzg'unchi aqidalarni keltirib chiqarishiga qarshi kurash sifatida, Ahli sunna yagona, ammo ikki yo'lli yondashuvni ishlab chiqdi.

Islomning dastlabki asrlaridan boshlab, ayniqsa, mujassima va mushabbiha firqalarining paydo bo'lishi bilan, ushbu mutashobih lafzlarning zohiriy ma'nosiga yopishib olishi noto'g'ri aqidani keltirib chiqardi. Alloh taoloni O'zining yaratgan maxluqotlariga o'xshatish (tashbih) va Unga jism, makon, harakat kabi insoniy sifatlarni nisbat berish yuzaga chiqa boshladi.

Shu sababli, Ahli sunna val jamoa ulamolari sof Islom e'tiqodini bu buzg'unchi tushunchalardan himoya qilish uchun yagona, lekin ikki yo'lli mukammal metodologiyani ishlab chiqdilar. Bu metodologiya asosiy maqsadi — Alloh taolo zotida azaliy, abadiy va barcha maxluqotlarning sifatlaridan pok ekanligini isbotlashdir.

Abul Hasan al-Ash'ariy mutashobih matnlar borasida salafi solihlarning ijmosini keltirib, shunday deydi: "Ular Allohning Kitobida Rasululloh alayhissalom olib kelgan barcha narsani, shuningdek, u zotning sunnatlaridan iborat naqli sobit bo'lgan narsani tasdiqlashga va uning muhkam (aniq) oyatlariga amal qilish vojibligiga, uning mushkul (qiyin) va mutashobih (o'xshash) matnlarini e'tirof etishga va tafsirini ilman to'liq anglab yetmagan har qanday narsani matniga iymon keltirgan holda Allohga qaytarish (havola qilish) kerak ekaniga ijmo qilishgan."¹

Salafi solih va ularning ortidan kelgan ahli sunna ulamolari ushbu mutashobih matnlarga nisbatan quyidagi usullarda muomala qilishga kelishib olganlar:

¹ Abul Hasan al-Ash'ariy. "Risolutu ila ahli as-sag'ri bibabil avbab". Hijriy 1413. 166-167-betlar

1. Alloh taolo O'ziga nisbat bergan yoki Rasululloh alayhissalomdan sahih bo'lgan barcha ismlar va sifatlarni o'zgartirishsiz (tahrifsiz), o'rnini almashtirishsiz (tabdilsiz), ziyoda qilmasdan, kamaytirmasdan, nafi va inkor qilmasdan isbot qilish.

2. Shar'iy matnlar talab qilgan va sog'lom aql lozim topganidek, Yaratuvchi (Xoliq) va yaratilgan (maxluq) o'rtasidagi farqni ajratish.

3. Nuqsonni vahimga keltiruvchi lafzni zohiriy ma'nosidan sarf qilish (uzoqlashtirish) va lafzdan birinchi bo'lib xayolga keladigan nuqsonning Alloh taologa nisbatan muhol ish ekanligini qat'iy belgilash.

4. Mutashobih sifatlarning haqiqatini anglab yetishni Alloh taologa havola qilish (tafviz qilish) va barcha sahih matnlarga imon, bo'ysunish va taslim bo'lish bilan, Alloh taoloning va Uning Rasulining irodasiga muvofiq taslim bo'lish.

5. Ushbu qoidalar bo'yicha salaf va xalaf (keyingilar) taslim bo'lib, kelishib olganlaridan so'ng, Alloh taoloning sifatlari masalasida bu mazhabdan ikki sharaflı tarmoq: Salaf va Xalaf ajralib chiqqan.²

Birinchidan: Solih Salaflarning usuli: Bu tafviz (havola qilish) bo'lib, u quyidagilarni anglatadi: Alloh taoloning sifatlari haqida Alloh huzuridan kelgan va Rasululloh alayhissalomdan sahih bo'lgan barcha narsaga imon keltirish va taslim bo'lish, bu borada hech qanday kalom bilan (ortiqcha gap-so'z bilan) chuqur kirishmaslik va lafzning ma'nosini ta'vil (izohlash) yoki tafsir (sharhlash) orqali chegaralab qo'ymaslik.

Imom Muhammad ibn al-Hasan ash-Shayboniy (Abu Hanifaning shogirdi) Salaf ulamolarining uslubiga binoan, ushbu masalada faqihlarning ijmo (yakdil fikr)ini ta'kidlab, shunday dedi: "Sharqdan G'arbgacha barcha faqihlar Alloh azza va jallaning sifati borasida Rasululloh alayhissalomdan ishonchli (siqot) kishilar tomonidan rivoyat qilingan Qur'on va hadislariga tafsirsiz va o'xshatishsiz (tashbihsiz) imon keltirishga ittifoq qilishgan." "Alloh O'zini O'zi vasf qilgan narsaning qiroati (o'qilishi) – uning tafsiridir"³ (ya'ni, Allohga loyiq bo'lgan zohiriy ma'noni isbotlashning o'zi tafsiridir).

Imom al-Bag'aviyning Alloh taoloning ushbu so'zini tafsir qilayotib: **"Ular Alloh va farishtalar soyali bulutlarda kelishi hamda ishning tugashidan boshqaga intizor bo'lyaptilar shekilli...?"** (Baqara surasi, 210-oyat) quyidagilarni ta'kidladi: Bu va shunga o'xshash oyatlarda afzal va to'g'ri yo'l, inson uning zohiriga imon keltirishi va uning ilmini Alloh taologa havola qilishi (topshirishi) lozimdir. Alloh azza va jallani paydo bo'lgan narsalar (maxluqotlar)ning sifatlariidan pok (munazzah) deb e'tiqod qilishi kerak. Bu Salaf imomlari va ahli sunna ulamolari tutgan yo'ldir.

Imom Kalbiy bu oyatlarni tafsir qilinmaydigan yashirin ilm (al-ilmu al-maktum) deb ta'riflagan va Alloh bu oyatdan nima iroda qilinganini yaxshi biluvchidir, degan. Bundan tashqari Makhul, Zuhriy, Avzo'iy, Molik, Ibn Muborak, Sufyon as-Savriy, Lays ibn Sa'd, Ahmad va Ishoq kabi imomlar bu va shunga o'xshash oyatlar haqida: "Ularni kelganidek, kayfiyatsiz (qandayligini so'ramasdan) qabul qilinglar", der edilar. Sufyon ibn Uayyana: "Alloh Kitobida O'zini vasf qilgan har bir narsaning tafsiri – uni o'qish va u haqida sukut saqlashdir. Uni Alloh taolodan va Uning Rasulidan boshqa hech kim tafsir qilishi joiz emas", deganlar.

² Badriddin ibn Jamoa. "Iyzohud dalil fi qot'i hujaji ahli at-ta'tiyl". Damashq. Daru iqro. 2005. 59-bet.

³ Badriddin ibn Jamoa. "Iyzohud dalil fi qot'i hujaji ahli at-ta'tiyl". Damashq. Daru iqro. 2005. 61-bet.

Faxr al-Bazdaviydan Alloh taoloni oxiratda ko'rishni isbot qilish masalasi borasidagi shunday deganlar: "Lekin tarafni isbot qilish man etilgandir. Uning sifatlanishi (kayfiyati) mutashobih bo'lib qoldi. Shuning uchun (mutashobih) matndagi haqiqatga e'tiqod qilgan holda unga taslim bo'lish vojibdir. Shuningdek, yad va vajh sifatlarini isbot qilish ham bizning nazdimizda haqdir va asli ma'lum, vasfi esa mutashobihdir. Vasfni anglashdan ojiz bo'lish sababli asl (asosiy ma'no)ni bekor qilish joiz emas. Mo'tazila firqasi aynan shu jihatdan adashgan, chunki ular sifatlarini bilmaganliklari sababli asllarni rad etib, muattila (sifatlarini inkor etuvchilar) bo'lib qolganlar."⁴

Ikkinchidan: Xalafning yo'li: Xalaf (ya'ni keyingi ulamolar) usuli — bu ta'vil bo'lib, so'zni zohiriy (tashqi) ma'nosidan boshqa, lekin lafz ehtimol qiladigan boshqa ma'noga yo'naltirishdir. Bu yo'naltirish qat'iy masalalarda qat'iy dalil (burhon qat'iy) tufayli, zanniy (ixtilofli) masalalarda esa zanniy dalil bilan amalga oshiriladi. Ba'zilar: "Ta'vil — bu lafzdagi ma'noni uning asl maqsadini ochib beradigan tarzda izohlashdir", deb aytganlar. Buni Imom an-Navaviy zikr qilgan⁵.

Ta'vil faqat quyidagi shartlarning barchasi amalga oshgandagina qabul qilinadi, bu shartlar yuqorida o'tgan ittifoq qilingan qoidalaridan kelib chiqadi. Bu qoidalarning birinchisi: Alloh taolo O'ziga nisbat bergan yoki Rasululloh alayhissalomdan sahih bo'lgan barcha ismlar va sifatlarini o'zgartirishsiz (tahrifsiz), o'rnini almashtirishsiz (tabdilsiz), ziyoda va nuqsonsiz, nafiy va inkor qilmasdan isbot qilish. Bundan keyin esa, qabul qilingan shar'iy ta'vilning shartlari va mezonlariga muvofiq, lafzga mos ma'noga to'xtaladi.

Islom tarixi davomida mutashobihotlar atrofida bahslar doim keskin ziddiyatlarga sabab bo'lib, ummat ichida ixtiloflarni keltirib chiqargan. Qur'on va Sunnatdagi mutashobih matnlarga yondashuv masalasi Ahli sunna val jamoa va "salafiy" yo'nalish o'rtasidagi aqidaviy farqning o'zagini tashkil etadi. Ahli sunna Allohni barcha nuqsonlardan poklash (tanzih) maqsadida asosan ma'noni Allohga havola qiladi (tafviz) yoki ehtiyoj tug'ilganda ma'noni izohlaydi (ta'vil). Salafiylar esa ta'vilni qabul qilmay, matnlarning ustki (zohiriy) ma'nosiga qat'iy yopishib oladilar. "Bila kayf" (qay yo'sindaligi noma'lum) tushunchasi aynan shu erda chuqur tafovutni yuzaga chiqaradi: Ahli sunna kayfiyatning mavjudligini butunlay inkor etadi, salafiylar esa uning borligini, lekin insonga maxfiy ekanini ta'kidlaydilar. Bu nuqtai nazar "salafiylik" aqidasi zimdan tajsim (Allohni jismga o'xshatish) xavfini yuklashi mumkinligi haqida xulosa qilinadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abul Hasan al-Ash'ariy. "Risolutu ila ahli as-sag'ri bibabil avbab". Hijriy 1413. 166-167-betlar
2. Badriddin ibn Jamoa. "Iyzohud dalil fi qot'i hujaji ahli at-ta'tiyl". Damashq. Daru iqro. 2005. 59-bet.
3. Badriddin ibn Jamoa. "Iyzohud dalil fi qot'i hujaji ahli at-ta'tiyl". Damashq. Daru iqro. 2005. 61-bet.
4. Imom Alouddin Abdulaziz ibn Ahmad al-Buxoriy. "Kashful asror an usul faxril islam al-bazdaviy". Turkiya, Sulaymoniyxa kutubxonasi. Maktaba as-sanoyi'. Hijriy 1307. 60-bet.
5. Imom Navaviy. "Tahzibul asmo va lug'at". Damashq. Darul fayha. 2022.

⁴ Imom Alouddin Abdulaziz ibn Ahmad al-Buxoriy. "Kashful asror an usul faxril islam al-bazdaviy". Turkiya, Sulaymoniyxa kutubxonasi. Maktaba as-sanoyi'. Hijriy 1307. 60-bet.

⁵ Imom Navaviy. "Tahzibul asmo va lug'at". Damashq. Darul fayha. 2022.